

# SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


## SAMARQAND VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2023-yil yanvar-aprel



*Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.



**Xizmatlar sohasi bu** – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

<sup>1)</sup> Shu va keyingi o'rinlarda 2022-2021-yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan




## Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023-yil yanvar-aprel)

	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>8 392,1</b>	<b>100,0</b>	<b>109,0</b>
Samarqand sh.	3 691,1	44,0	112,0
Kattaqo'rg'on sh.	188,4	2,2	106,9
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	279,2	3,3	105,9
Bulung'ur	218,1	2,6	106,7
Jomboy	350,1	4,2	107,0
Ishtixon	290,6	3,5	105,8
Kattaqo'rg'on	322,5	3,8	106,3
Qo'shrabot	161,9	1,9	105,6
Narpay	270,6	3,2	105,9
Payariq	290,7	3,5	107,0
Pastdarg'om	503,7	6,0	106,2
Paxtachi	180,6	2,2	105,6
Samarqand	566,2	6,7	109,3
Nurobod	164,1	2,0	105,7
Urgut	556,5	6,6	106,9
Toyloq	357,8	4,3	107,2

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.

# Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari (2021-2023-yillar yanvar-aprel)




**2023-yil yanvar-aprel** oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 032,9** ming so'mga yetdi. **2022-yilning yanvar-aprel** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **106,7 %** ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar (2023-yil yanvar-aprel)

	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, %
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>2 032,9</b>	<b>106,7</b>
Samarqand sh.	6 427,1	109,8
Kattaqo'rg'on sh.	2 010,8	105,0
Oqdaryo	1 646,1	103,3
Bulung'ur	1 101,5	104,4
Jomboy	1 888,3	104,4
Ishtixon	1 073,2	103,6
Kattaqo'rg'on	1 118,0	104,2
Qo'shrabot	1 161,6	103,5
Narpay	1 209,2	103,9
Payariq	1 086,3	104,4
Pastdarg'om	1 340,2	104,1
Paxtachi	1 202,7	104,1
Samarqand	2 113,3	106,9
Nurobod	1 027,4	103,7
Urgut	1 017,2	104,3
Toyloq	1 654,2	104,6

	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>%</i>	O'sish sur'ati, <i>%</i>
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>8 392,1</b>	<b>100,0</b>	<b>109,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	408,4	4,9	123,8
Moliyaviy xizmatlar	1 411,5	16,8	118,5
Transport xizmatlari	1 955,6	23,3	102,8
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	1 827,7	21,8	104,8
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	356,7	4,3	111,5
Savdo xizmatlari	2 308,8	27,5	105,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	204,4	2,4	110,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	381,0	4,5	120,7
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	158,9	1,9	97,4
Ijara xizmatlari	234,1	2,8	109,8
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	256,0	3,0	108,0
Shaxsiy xizmatlar	390,9	4,7	107,6
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	124,8	1,5	108,1
Boshqa xizmatlar	201,0	2,4	109,4




2021-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmi **616,3** mlrd. soʻmga oshib, **1 411,5** mlrd. soʻmga yetdi. Jami xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi **16,8** % ni tashkil etdi. Moliyaviy xizmatlarning oʻsish surʻati **118,5** % ni tashkil etdi.

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan toʻlovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash boʻyicha xizmatlari uchun toʻlanadigan haq hisobiga koʻra olinadi.

## Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2023-yil yanvar-aprel)


2023-yilning yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sugʻurta va nafaqa taʼminoti boʻyicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi **92,8** % ni tashkil etdi.



# Transport xizmatlari

(2021-2023-yillar yanvar-aprel)

2023-yilning yanvar-aprel oylarida transport xizmatlari hajmi 1 955,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan ushbu xizmat turining o'sish sur'ati 102,8 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 23,3 % ni tashkil etdi.



Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

2023-yilning 1-may holatiga ko'ra, asosiy faoliyat turi tashish va saqlash bilan bog'liq bo'lib, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 1 026 birlikni, yoki ularning umumiy sonining 2,3 % ni tashkil etdi.

## Transport xizmatlarining turlari bo'yicha tarkibi

(2023-yil yanvar-aprel)



Avtomobil transporti




Boshqa transport faoliyati



# Avtomobil transporti xizmatlari

(2021-2023-yillar yanvar-aprel)



2022-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan ushbu xizmatlarning o'sish sur'ati **104,8 %** ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **21,8 %** ni tashkil etdi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.


2023-yilning yanvar-aprel oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 827,7** mlrd. so'mga yetdi.



## Avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi

Avtotomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida yo'lovchilarni tashish xizmatlari ustunlik qiladi (**71,4 %**).

**Taqqoslash uchun:** 2022-yilning yanvar-aprel oylarida ushbu ko'rsatkich **71,3 %** ni tashkil etgan.






# Savdo xizmatlari

(2021-2023-yillar yanvar-aprel)

**2021-yilning yanvar-aprel** oylariga nisbatan **2023-yilning yanvar-aprel** oylarida savdo xizmatlari hajmi **780,2** mlrd. soʻmga oshib, **2 308,8** mlrd. soʻmni tashkil etdi.

**2022-yilning yanvar-aprel** oylariga nisbatan ushbu xizmat turi boʻyicha oʻsish surʻati **105,5 %** ga yetdi.



**Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari** hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, yaʼni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlarini orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlarini uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.



**2023-yilning 1-may** holatiga koʻra xizmatlar sohasida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida savdo faoliyati bilan band boʻlganlarning ulushi **36,1 %** yoki **15 992** birlik bilan ustunlik qiladi.



# Savdo xizmatlarining tarkibi


(2023-yil yanvar-aprel)



**2023-yil yanvar-aprel** oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlarining umumiy hajmining deyarli to'rtidan uch qismini, ya'ni **75,1 %** ni tashkil etdi.

**Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar**


**Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar**



**Ulgurji savdo xizmatlari, avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari xizmatlari**

# Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2021-2023-yillar yanvar-aprel)



**2023-yilning yanvar-aprel** oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **408,4** mlrd. soʻmdan iborat boʻlib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʻati **123,8** % ni tashkil etdi.




**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi** amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat koʻrsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yigʻindisi sifatida aniqlanadi.


**2023-yilning 1-may** holatiga koʻra «Axborot va aloqa» faoliyati bilan shugʻullanuvchi korxonalar va tashkilotlar soni **667** birlikka yetdi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

(2023-yil yanvar-aprel)



# Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2021-2023-yillar yanvar-aprel)



**2023-yil yanvar-aprel** oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **381,0** mlrd. so'mga yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **120,7** % ni tashkil etdi.




“**Ta'lim**” **seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

**Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.





**2023-yil yanvar-aprel** oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **158,9** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **1,9** % ni tashkil etdi.




**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**2023-yilning 1-may** holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **1 003** birlikni tashkil etdi.



**2021-yilning yanvar-aprel** oylariga nisbatan 2023-yilning ushbu oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi **203,3** mlrd. so'mga oshib, **356,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi**, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.


**2023-yilning 1-may** holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **3 511** birlikni tashkil etgan.

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi**  
(2023-yil yanvar-aprel)



# Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar

(2021-2023-yillar yanvar-aprel)



2023-yilning yanvar-aprel oylarida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi **256,0** mlrd. so'm miqdorda qayd etilib, 2022-yilga nisbatan o'sish sur'ati **108,0** % ni tashkil etdi.



## Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining tarkibi (2023-yil yanvar-aprel)




**Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi** bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish, kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyemniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyafzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

# Ijara xizmatlari

(2021-2023-yillar yanvar-aprel)

**2021-yilning yanvar-apreliga** nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **55,6** mlrd. so'mga oshib, **234,1** mlrd. so'mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi **2,8** % ni tashkil etdi.



**Ijara xizmatlari** bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Xizmatlar sohasi texnologiyalari va tarmoq tuzilmasining murakkablashishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati va turlarini yaxshilash, shuningdek, yuqori texnologiyali va intensiv xizmat ko'rsatish tarmoqlarining jadal rivojlanishi korxonalar, tashkilot va xo'jaliklarning samaradorligi va ularning raqobatbardoshligini hamda aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

